



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRI

---

A.E.Ergashev  
Z.B.Artikov  
I.A.XOLMIRZAYEV  
K.A.Yuldashev  
J.T.Abduzuxurov  
A.M.Qosimov  
A.N.SHUKUROV  
D.Y.Babaxanov  
I.S.IKRAMOV  
U.M.BURXANOV  
F.X.Ashurov  
S.X.QULMIRZAYEV  
S.A.Xalilov  
Sh.N.Xamidov  
D.B.NAZIROV  
Y.N.Pardayev  
T.U.Atakulov

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2025-yil 27-yanvardagi KQ-49-V-son qarori va unga ilova etilayotgan chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosini muddatlarida, sifatli va to'laqonli bajarilishini ta'minlash maqsadida uch kun muddat ichida vazirlik chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqib, tasdiqqa kiritilsin. Nazorat-  
Q.Mamatmurotovga.

***Muddat: 6 Fevral 2025-yil***

Hujjat kodi: **KE38159922**

31 Yanvar 2025





## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY MAJLISI SENATI KENGASHINING QARORI

### Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish to‘g‘risida

So‘nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish hamda unga qarshi kurashishga, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo‘yishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda.

Byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va “**yashirin iqtisodiyot**”ni qisqartirish choralari ko‘rilmoqda hamda “**Korrupsiyasiz soha**” loyihalari amalga oshirilmoqda.

Xususan, “**Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida**”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi **Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi** tashkil etilib, davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi ustidan tizimli nazorat o‘rnatildi.

Qabul qilingan qonunlar orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralari kuchaytirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyati hamda ahamiyatini joylarda fuqarolarga yetkazish, aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish maqsadida, shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning 16-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi

### Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi raisining aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish bo‘yicha axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish masalalari yuzasidan **ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga** muvofiq tarkibda tuzilsin.

3. Quyidagilar **ishchi guruhning asosiy vazifalari** etib belgilansin:

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish masalalari bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish;

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni o'rganish va tahlil qilish;

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni ishchi guruh yig'ilishlarida muhokama qilish;

jamiyatda aholining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish borasida taklif va tavsiyalar tayyorlash hamda manfaatdor vazirlik va idoralarga yetkazish;

aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish masalalari bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha Senat Kengashiga axborot kiritish.

4. Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish bo'yicha **chora-tadbirlar rejasi 2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Ishchi guruh (Z. Bekatova) mazkur Qaror ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha **har chorakda** O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashiga axborot kiritsin.

6. Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining birinchi o'rinbosari S. Safojev zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Senatining Raisi**



**T. Narbayeva**

Toshkent shahri,  
2025-yil 27-yanvar,  
KQ-49-V-sonli.

**Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini  
yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini  
shakllantirish masalalari yuzasidan ishchi guruh  
TARKIBI**

1.	<b>Bekatova</b> Zumrad Raximbayevna	O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasida doimiy asosda ishlovchi senator, <i>Ishchi guruh rahbari</i>
2.	<b>Saparov</b> Sherzod Baxtiyarovich	O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi – matbuot kotibi, <i>Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari</i>
<b>Ishchi guruh a‘zolari</b>		
3.	<b>Buzrukxonov</b> Sarvarxon Munavarxonovich	O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri o‘rinbosari
4.	<b>Sadullayev</b> Qudrat Yusubbayevich	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi bo‘lim boshlig‘i
5.	<b>Achilov</b> Izzat Tulkinovich	O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtirish boshqarmasi prokurori
6.	<b>Sultanov</b> Jamshid Xasilovich	O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash departamenti Ma‘naviy-ma‘rifiy xizmati boshlig‘i o‘rinbosari
7.	<b>Ochilov</b> Alijon Muxlisovich	O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari
8.	<b>Yusupov</b> Jamshid Baxtiyarovich	O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Huquqiy axborot boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i

9.	<b>Sayidumarov</b> Oybek Tursunxo'ja o'g'li	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi Inson resurslari va kadrlar salohiyatini rivojlantirish departamenti davlat xizmatchilarining malakasini oshirish boshqarmasi bosh inspektori
10.	<b>Aralov</b> Dadaxon Rashitxonovich	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi Korrupsiyaga qarshi komplayens nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi
11.	<b>Safarov</b> Temur Uktamovich	O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish ilmiy-ta'lim markazi prokurori
12.	<b>Raximova</b> Muattara Abdusattarovna	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti professori
13.	<b>Niyozova</b> Salomat Saparovna	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Toshkent davlat yuridik universiteti professori
14.	<b>Kendjayev</b> Rustam Valiyevich	O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi kotibiyati yetakchi maslahatchisi, <b><i>Ishchi guruh kotibi</i></b>

*Izoh: Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda ularning o'rniga lavozimlariga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*

**Aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda  
korrupsiyaga nisbatan murossasizlik muhitini shakllantirish bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan  
CHORA-TADBIRLAR REJASI**

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
<b>I. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaning oldini olish</b>				
1.	Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi malakasini oshirish.	1. Davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining <b>Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasida</b> malakasini oshirish ishlarini tashkil etish. 2. Malaka oshirish ishlari natijalari yuzasidan ma'lumotlarni har yarim yilda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritish.	doimiy  iyun-dekabr	Huquqi muhofaza qilish akademiyasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, vazirlik va idoralar, ta'lim tashkilotlari, ishchi guruh a'zolari
2.	Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlarini "E-learning" elektron ta'lim platformasida onlayn o'qitish.	1. Davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlikni ta'minlashga mas'ul xodimlarini "E-learning" platformasida o'qitish ishlarini tashkil etish. 2. O'quvlar natijalari yuzasidan ma'lumotlarni ishchi guruh yig'ilishlarida muhokama qilish.	doimiy  har chorakda	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, vazirlik va idoralar, ta'lim tashkilotlari, ishchi guruh a'zolari
3.	Davlat xaridlari jarayonida korrupsiyaga oid xavf-xatarlarni aniqlash yuzasidan sotsiologik tadqiqot va so'rovnoma o'tkazish.	1. Davlat xaridlari jarayonida ishtirok etuvchi tadbirkorlar, davlat buyurtmachilari va operatorlar bilan jarayonni tanqidiy tahlil qilish maqsadida anonim shaklda sotsiologik tadqiqotlar va so'rovnomalar tashkil qilish. 2. So'rovnoma natijalarini tahlil qilish va zaruratga ko'ra tegishli davlat organlarini jalb qilgan holda muhokama qilish.	fevral	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Savdo-sanoat palatasi, "Ijtimoiy fikr" markazi, "Yuksalish" umummilliy harakati, "Taraqqiyot strategiyasi markazi", ishchi guruh a'zolari

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
4.	<p>“Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish.</p>	<p>1. Energetika va Transport vazirliklari tomonidan “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar holatini tahlil qilish.</p> <p>2. Tahlil natijalari asosida, zaruratga ko‘ra, Energetika va Transport vazirliklarining axborotlarini Senatning Sud-huquq masalalari va korruptsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasi majlisida eshitish bo‘yicha taklif tayyorlash.</p>	noyabr-dekabr	Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a‘zolari, Energetika va Transport vazirliklari
5.	<p>Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy qo‘llanma tayyorlash.</p>	<p>1. Davlat organlari va tashkilotlari xodimlari uchun ijro intizomi hamda korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha huquqiy qo‘llanma tayyorlash.</p> <p>2. Tayyorlangan huquqiy qo‘llanmani davlat organlari va tashkilotlariga yetkazish.</p>	aprel	Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, ishchi guruh a‘zolari
6.	<p>“Korruptsiyadan xoli” bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlarini aniqlash hamda ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.</p>	<p>1. “Korruptsiyadan xoli” bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlarini belgilangan tartibda aniqlash hamda ularni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish tizimini joriy qilish bo‘yicha takliflar tayyorlash.</p> <p>2. Takliflarni ishchi guruh yig‘ilishida muhokama qilish hamda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda amaliyotga joriy qilish choralarini ko‘rish.</p>	iyul	Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, vazirlik va idoralar, ishchi guruh a‘zolari
7.	<p>Korruptsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini rag‘batlantirish.</p>	<p>1. Korruptsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini aniqlash.</p> <p>2. Korruptsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etayotgan fuqarolik jamiyati institutlarini moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.</p>	avgust	Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, vazirlik va idoralar, O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi Kengashi (kelishuv asosida), ishchi guruh a‘zolari

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
8.	<p>Mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlariga jamiyat va davlat hayoti uchun muhim qonunchilik hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan <b>“Huquqiy bilimlar kuni”</b> hamda <b>“Siyosiy-ma'rifat soati”</b> tadbirlarini o'tkazib borish.</p>	<p>1. Mahalliy davlat hokimiyati organlari xodimlari uchun <b>“Huquqiy bilimlar kuni”</b> tadbirlarini o'tkazib borish bo'yicha grafik ishlab chiqish.</p> <p>2. Grafik asosida <b>“Huquqiy bilimlar kuni”</b> tadbirlarini o'tkazish.</p> <p>3. <b>“Huquqiy bilimlar kuni”</b> tadbirlarini o'tkazish natijalari bo'yicha har chorak yakuni bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim qilish.</p> <p>4. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ma'lumotlari asosida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa masalalarda Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi muassisligidagi <b>“Siyosiy-ma'rifat soati”</b>da kontent tayyorlash va taqdim etib borish.</p>	<p>fevral</p> <p>grafik asosida</p> <p>har oyda</p> <p>har oyda</p>	<p>Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahar, viloyat, tuman va shahar hokimliklari, Davlat xizmatini rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish agentliklari</p>
9.	<p>Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida <b>“Korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> rubrikasi (sarlavhasi)ni ochish va unga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni kiritib borish.</p>	<p>1. Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida <b>“Korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> rubrikasi (sarlavhasi)ni ochish.</p> <p>2. <b>“Korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> rubrikasi (sarlavhasi)da korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirib borish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritib borish.</p>	<p>fevral</p> <p>doimiy</p>	<p>Vazirlik va idoralar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a'zolari</p>
10.	<p>Aholi uchun korrupsiya, uning salbiy oqibatlari, korrupsiyaga qarshi kurashishni targ'ib qiluvchi sahna asarlari, kinofilmlar, targ'ibot materiallari tayyorlash.</p>	<p>1. Aholining barcha qatlamlari uchun korrupsiyaga murossasizlikni shakllantirishga, yosh avlod ongiga halollik qadriyatlarini singdirishga qaratilgan turkum sahna ko'rinishlari, badiiy filmlar, targ'ibot materiallari tayyorlash. Bunda amaldagi qonunlarda ko'zda tutilgan javobgarlik choralari, korrupsiyaviy holatlar yuzasidan statistik ma'lumotlar, korrupsiyaga qarshi kurashishga vakolatli bo'lgan davlat organlari va tashkilotlari ro'yxati hamda boshqa masalalar nazarda tutiladi.</p> <p>2. Tayyorlangan sahna ko'rinishlari, badiiy filmlar, targ'ibot materiallarini milliy va mahalliy telekanallar orqali</p>	<p>mart</p>	<p>Madaniyat vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi, Adliya vazirligi, vazirlik va idoralar, ishchi guruh a'zolari</p>

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
11.	<p>Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy holatlar bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallarini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ib qilish.</p> <p><b>“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> kuniga bag'ishlab <b>Aksilkorrupsiya oyligini</b> o'tkazish.</p>	<p>efirga uzatish, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish hamda joylarga aholiga yetkazish.</p> <p>1. Manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy holatlar bo'yicha xabar berish mumkin bo'lgan aloqa kanallari ro'yxatini tuzish.</p> <p>2. Ushbu ro'yxatni har oyda yangilab borish.</p> <p>3. Ro'yxatni ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish.</p>	doimiy	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, vazirlik va idoralar, ta'lim tashkilotlari, ishchi guruh a'zolari
12.	<p><b>“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> kuniga bag'ishlab <b>Aksilkorrupsiya oyligini</b> o'tkazish.</p>	<p>1. <b>“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> kuni munosabati bilan o'tkaziladigan <b>Aksilkorrupsiya oyligi</b> doirasida vazirlik va idoralar tomonidan <b>“Ochiq eshiklar kuni”</b> tadbirini o'tkazish.</p> <p>2. <b>“Ochiq eshiklar kuni”</b> tadbirlarida o'z faoliyati ochiqligini ta'minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etish, sohada zamonaviy korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ommaviy axborot vositalari, jurnalistlar, blogerlar va jamoatchilik vakillariga ma'lumotlar berish.</p> <p>3. <b>“9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni”</b> munosabati bilan huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida tanlov o'tkazish va g'oliblarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda taqdirlash.</p> <p>4. <b>“Ochiq eshiklar kuni”</b> tadbirlari natijalari bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim qilish.</p>	noyabr-dekabr	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, vazirlik va idoralar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar
13.	<p>Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yuzasidan intervyu, suhbatlar tashkil etish.</p>	<p>1. Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yuzasidan intervyu va suhbatlar tashkil etish.</p> <p>2. Intervyu va suhbatlarni ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallar, rasmiy veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim qilish.</p>	yil davomida	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, vazirlik va idoralar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a'zolari

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
14.	Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan faoliyatining ochiqqligi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan lavha va ko'rsatuvlar tayyorlash.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan faoliyatining ochiqqligi to'g'risidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi yuzasidan lavha va ko'rsatuvlar tayyorlash.</li> <li>2. Lavha va ko'rsatuvlarni ommaviy axborot vositalari, gazeta va jumallar, rasmiy veb-saytlar hamda ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish.</li> <li>3. Amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim qilish.</li> </ol>	yil davomida	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, vazirlik va idoralar, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a'zolari
<b>II. Ta'lim tizimida korrupsiyaning oldini olish</b>				
15.	Yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o'tkazish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Yoshlarda korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitni shakllantirishga qaratilgan insholar tanlovini o'tkazish konsepsiyasi va talablarini nazarda tutuvchi tanlov nizomini ishlab chiqish.</li> <li>2. Insholar tanlovini o'tkazish va tanlov g'oliblarini rag'batlantirish.</li> </ol>	mart-aprel	Yoshlar ishlari agentligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a'zolari
16.	Ta'lim muassasalarida o'quvchi-yoshlar o'rtasida <b>"Biz korrupsiyaga qarshimiz"</b> rasmlar ko'rgazmasini o'tkazish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <b>"Biz korrupsiyaga qarshimiz"</b> rasmlar ko'rgazmasini o'tkazish to'g'risida e'lon berish.</li> <li>2. <b>"Biz korrupsiyaga qarshimiz"</b> rasmlar ko'rgazmasini o'tkazish.</li> <li>3. Ko'rgazma natijalarini OAVda keng yoritish.</li> </ol>	dekabr	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Yoshlar ishlari agentligi
17.	Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturini O'zbekistonda keng joriy etish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Korrupsiyaga qarshi ta'lim va yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirish global resursi (GRACE) dasturini ta'lim muassasalarida targ'ib qilishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'quv dasturini ishlab chiqish.</li> <li>2. O'quv dasturini barcha ta'lim tashkilotlariga yetkazish.</li> <li>3. O'quv dasturida berilgan mavzularni o'quvchilarga tushuntirib borish.</li> </ol>	2025-2026-o'quv yilidan	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
18.	<p>Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlaridagi <b>“Korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> rubrikasi (sarlavhasi)ni ochish va unga amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni kiritib borish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida <b>“Korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> rubrikasi (sarlavhasi)ni ochish.</p> <p>2. <b>“Korrupsiyaga qarshi kurashish”</b> rubrikasi (sarlavhasi)ga oliy ta'lim muassasalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirib borish.</p> <p>3. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotlarni har chorak yakuni bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga kiritib borish.</p>	<p>fevral</p> <p>doimiy</p> <p>har chorakda</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, tizimida oliy ta'lim muassasalari mavjud bo'lgan vazirlik va idoralar, Oliy ta'lim muassasalari,</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a'zolari</p>
19.	<p><b>#Stop korrupsiya</b> xeshtegi ostida oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida chellenj o'tkazish.</p>	<p>1. Oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida chellenj o'tkazish haqida e'lon qilish.</p> <p>2. Oliy ta'lim muassasalarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida chellenj o'tkazish.</p> <p>3. O'tkazilgan chellenj natijalari bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim qilish.</p>	<p>mart</p> <p>aprel</p> <p>har chorakda</p>	<p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>
20.	<p>“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari, o'quvchilari va talabalari uchun o'quv dasturlarini tasdiqlash.</p>	<p>1. “Korrupsiyaga qarshi kurashish” maxsus o'quv dasturi asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida va maktab ta'limi muassasalari o'quvchilarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni bolaligidan shakllantirish ishlarini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barcha yosh guruhlari ertalabki qabul jarayoni suhbatlarida, umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun barcha sinflar doirasida “Tarbiyaviy soatlar”da va umumiy o'rta ta'limning “Tarbiya”, “Tarix”, shuningdek, “Davlat va huquq asoslari” fanlari doirasida o'tilayotgan mavzularni “Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasi ko'magida milliy va jahondagi mavjud bo'lgan resurslardan keng foydalangan holda mustahkamlash.</p>	<p>doimiy</p>	<p>Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi,</p> <p>Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,</p> <p>Huquqni muhofaza qilish akademiyasi,</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>

T/r	Amalga oshiriladigan vazifalar	Amalga oshirish shakli (mexanizmi)	Ijro muddati	Mas'ul ijrochilar
21.	Chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar samaradorligini oshirish.	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. Chora-tadbirlar rejasi ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni monitoring qilish va umumlashtirib borish.</li> <li>2. Monitoring va umumlashtirish natijalarini ishchi guruh a'zolari ishtirokida muhokama qilib borish.</li> <li>3. Muhokamalar natijalari bo'yicha Oliy Majlis Senati Kengashiga axborot kiritish.</li> </ol>	har chorak	ishchi guruh kotibi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi, ishchi guruh a'zolari